

# TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ

JOURNAL  
2022

№3

**Bosh muharrir:**  
**Pardayev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**  
**Aqchayev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.**

**Mas’ul kotiblar:**  
**Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**  
**Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

**Tahririyat a’zolari:**

- 1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

**Тарих ва Жамият илмий журнали**  
**2021-2022 О'QUV YILIDA JIZZAX SHAHAR UMUMTA'LIM**  
**MUASSASALARINING MODDIY-TEXNIK BAZASI MUSTAHKAMLASH**  
**VA TA'LIM SIFATI TO'G'RISIDA**

**D.Abdurasulova,**

JDPI, Tarix fakulteti, Tarix va uni o'qitish  
metodikasi kafedrasи o'qituvchisi

**M.Usmonov,**

JDPI, Tarix fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 2021-2022 o'quv yilida Jizzax shahar umumta'lismuassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlash va ta'lismifati to'g'risida muallifning tahlili aks etgan.

**Kalit so'zlar:** Jizzax shahar, muktab, moddiy-texnik baza, ta'lism, Sh.Mirziyoyev, tarbiya.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillardanoq yosh avlodning ta'lism-tarbiyasiga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Shu boisdan yoshlari ta'lism-tarbiyasi davlat siyosatining ustivor darajasiga ko'tarildi. Bunga jamiyatimizdagi so'nggi yillardagi ijobjiy o'zgarishlar misol bo'la oladi.

«Muktab-bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak», — deydi Prezident SH.M.Mirziyoyev

Ma'lumki ta'lismamlakat ijtimoiy-iqtisodiy g'oyaviy-ma'naviy hayotining muhim tarmog'idir. Ta'lism asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Ta'lism to'g'risida"gi qonun bilan kafolatlangan. Ta'lism sohasidagi mazkur qonunda respublikada ta'larning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'trof etilgani holda ta'lism sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lism tizimi va boshqaruv tartibi, ta'lism-tarbiya xodimlarining haq-huquqlari vazifalari ma'suliyatlari, maqsadlari belgilab berildi. Umumiy ta'lism uzliksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'g'in bo'lib ta'lism oluvchilarining ilmiy bilimlar olishini mehnat ta'limi boshlang'ich kasbkor ko'nikmalarini egallashlari shuningdek, o'z ijodiy qobiliyatlarini va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta'minlaydi. Istiqlol yillarida Jizzax shahridagi umumta'lismuassasalarining sifatini oshirishga ham katta e'tibor berildi.

Jumladan:

Asosiy ko'rsatkichlar Jizzax shahrida jami 30 ta ta'lismuassasa faoliyat yuritib, shundan 29 ta muktab, 1 ta "Barkamol avlod" bolalar muktabi mavjud.

Ta'lism 2 tilda (o'zbek, rus) olib boriladi.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

2021-2022 o'quv yilida jami o'quvchilar soni 35685 nafar.

- 1-sinf o'quvchilar soni 2675 nafar;
- 11-sinf o'quvchilar soni 2 454 nafar.

**Ta'lif olishning navbatliligi.** Bugungi kunda 29 ta maktabning 89,6 % da (26 ta muktab) o'qish jarayoni 2 smenada tashkil etilgan. SHuningdek, 10 tasi (34,4 %) 1,5 dan yuqori va 4 tasida (1,19,22,26-maktablar) (13,7 foiz navbatlilik koeffitsienti 2 dan yuqori).

2021 yilda Investitsiya dasturi bo'yicha Sangzor mahallasi hududida 1 ta maktabda (30-sonli muktab) 12.136 mlrd.so'mlik 528 o'quvchi o'rinni yangi maktab qurilishi amalga oshirilmoqda.

2021 yilda Obod mahalla dasturi bo'yicha "Obod" mahallasi hududida 1 ta maktabda (27-sonli muktab) 2.276 mlrd.so'mlik rekonstruktsiya uslubida 240 o'quvchi o'rinni qo'shimcha muktab binosi qurilmoqda.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik. 2021-2022 yillar kuz-qish mavsumi uchun ko'mir yoqilg'isi bilan isitiladigan muassasalar mavjud emas. Barcha maktablar gaz bilan ta'minlangan.

### **Ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi va atrofi o'ranganligi.**

Jizzax shahrida ichimlik suvi tashib keltiriladigan maktablar mavjud emas, 29 ta muktab uzlusiz ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Hozirda jami 26 ta maktabning atrofi to'liq o'rangan, 3 maktabda qisman o'ralmagan joylari mavjud.

Pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi. Shaharda jami 2565 nafar pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatib, shundan pedagog xodimlarning 2509 (97,8 %) nafari oliy, 34 (0,1 %) nafari o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar. O'qituvchilarning 234 (9 %) nafari oliy toifali, 596 (23,2 %) nafari birinchi toifali, 641 (24,9 %) nafari ikkinchi toifali, 1094 (42,6 %) nafari mutaxassis toifali o'qituvchilar.

**Darslik ta'minoti.** 2021-2022 o'quv yilida shahar bo'yicha barcha umumiyl o'rta ta'lif maktablarining 1-sinf o'quvchilari uchun Prezident sovg'alari yetkazib berilgan. 2-11-sinf o'quvchilari ijara tizimidagi darsliklar bilan ta'minlangan. Darsliklar "O'quv ta'lif ta'minot" DUK Jizzax filiali tomonidan ta'lif muassasalariga yetkazib berildi.

2020/2021 o'quv yilida 1-sinfga qabul qilingan o'quvchilar. Shahardagi umumta'lif maktablariga jami 2675 nafar o'quvchilar qabul qilingan, ularning barchasi 7 yoshli bolalarni tashkil etadi.

**Ta'lif tili.** Jizzax shahrida maktablarida o'qitish 2 tilda (o'zbek, rus) olib boriladi. Ta'lif tillari bo'yicha tahsil etilganda 20 ta maktablarda o'quvchilar o'zbek tilida, 9 ta maktablarda o'quvchilar rus va o'zbek tilida ta'lif olmoqda.

**"Barkamol avlod" bolalar maktablari.** Jizzax shahar xalq ta'limi bo'lumi tasarrufidagi jami 1 ta "Barkamol avlod" bolalar muktabi faoliyat olib bormoqda.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

Mazkur maktabdagi 1124 nafar o'quvchilarga 50 nafar pedagog xodimlar turli xil to'garaklardan ta'lif berib kelmoqdalar.

**Yakka tartib.** Jizzax shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lif muassasalarida 2021-2022 o'quv yilida jami 94 nafar (shundan 35 nafari qizlar) o'quvchilar uyda yakka tartibda ta'lif olmoqdalar. Ularga 274 nafar o'qituvchilar dars berib kelmoqdalar.

Kasallik turlari bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, 23 nafari (shundan 8 nafari qizlar) aqli zaif, 35 nafari (15 nafari qizlar) tayanch harakat a'zolari shikastlangan, 2 nafari (1 nafari qizlar) eshitishda nuqsoni borlar, 35 nafari (shundan 11 nafari qizlar) boshqa turdag'i kasallik bilan kasallangan bolalardir.

Uyda yakka tartibda ta'lif olayotgan o'quvchilarning 89 nafari o'zbek 5 nafari rus tilida ta'lif olmoqdalar.

**Sport bilan shug'ullanish.** Umumta'lim maktablarida ta'lif olayotgan 35685 nafar o'quvchilardan 35548 nafar (99,7 %) jismoniy tarbiya darslarida ishtirok etadi.

SHuningdek, shaharda jami 126 ta sport inshootlarida hamda 29 ta maktabdagi sport to'garaklarida 12992 nafar nafardan ziyod o'quvchilar sport to'garaklarida shug'ullanib keladilar.

**Jinoyatchilik tahlili.** 2021 yil holatida o'quvchi-yoshlar tomonidan 5 ta (26,11,19,3-sonli maktablar) jinoyat sodir etilgan.

SHuningdek, o'quvchi-yoshlar tomonidan sodir etilgan suitsid holatlari, 2021 yilda bu ko'rsatkich 3 tani (25,14,3-sonli maktablar) tashkil qilgan. Ushbu o'quvchining hayoti saqlab qolningan.

Muntazam dars qoldirgan, nazoratsiz va qarovsiz qolgan, huquqbuzarliklar sodir etgan o'quvchilarning 2021 yil 9 oyi davomida jami 10 nafar ota-onalariga farzand tarbiyasida o'z majburiyatini bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi MJtKsining 47-moddasining tegishli qismlari bilan ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Maktab bitiruvchilarining oliy ta'lif muassasalariga qabul qilinganligi. 2021 yilda Jizzax shahrida 2453 nafar o'quvchi bitkazib, 687 nafari talabalikka tavsiya etildi. O'quvchilarni OTMlarga jalb qilish bo'yicha shahardagi 15,12,13,21,18,25-sonli maktablar past natija ko'rsatgan. Shu bilan bir qatorda 1,5,6,7,17,19,22,29-sonli maktablarimiz yuqori natijalarga erishgan.

### **5 tashabbus bo'yicha**

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha umumta'lim maktablarida qo'shimcha 178 ta to'garaklar ochilib, jami 3930 nafar yoshlar qamrab olindi.

## **Тарих ва Жамият илмий журнали**

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o’z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish masalalari bo’yicha umumiy o’rtalim maktablarida 267 ta sport to’garaklari yangidan tashkil etilib, ularga 8075 nafardan ortiq o’quvchi-yoshlar jalb etildi.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o’rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari bo’yicha shahardagi sektor hududlaridan 12 ta namunali ta’lim muassasasi tanlab olindi va ushbu ta’lim muassasalarida internet tizimi yaxshilandi. Maktablarda ATI to’garaklari ochilgan bo’lib ularga 1657 nafar o’quvchilar jalb qilingan.

To’rtinchi tashabbus – aholi, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o’rtasida kitobxonlikni keng targ’ib qilish masalalari bo’yicha “Qadrdon maktabimga kitob sovg’a qilaman” shiori ostida aktsiya o’tkazildi. Aktsiyadan keyin maktab kutubxonalariga qo’shimcha ravishda 562 nafar sobiq bitiruvchilar tomonidan 8548 dona badiiy adabiyotlar sovg’a qilindi.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash masalalari bo’yicha o’quvchi-qizlarni kasb-hunar egallashga qiziqtirishni yanada kuchaytirish maqsadida barcha maktablarda 97 ta to’garaklar tashkil etilgan bo’lib, ularga 1914 nafar o’quvchi-qizlar jalb qilingan.

Hech shubhasiz bugun ta’lim-tarbiya va ilm fan sohasiga sarflanayotgan mablag’lar va qilinayotgan mehnatlar mamlakatimiz kelajagining egasi bo’lgan yosh avlodni shakllantirish yo’lida mustahkam poydevor bo’lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., “O’zbekiston”, 1992.
2. Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997.
3. Davlat, jamiyat,oila va yoshlar tarbiyasi muommolari. T., «O’zbekiston», 1997.
4. O’zbekiston tarixi 3 -qism T., «Universitet», 1996.
5. O’zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Mustaqil O’zbekiston tarixi. T., «Sharq», 2000